KOUCHING YONDOSHUVLAR ASOSIDA INGLIZ TILI DARSLARINI SAMARALI TASHKIL QILISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ya.A.Nurumbekova
Guliston davlat Pedagogika institute
Pedagogika va psixologiya kafedrasi mudiri, dotsent

Annotatsiya: Ushbu maqolada kouching yondoshuvlar asosida ingliz tili darslarini samarali tashkil qilishning o‘ziga xos xususiyatlari hamda zamonaviy ta'lim paradigmasi o‘quvchini shunchaki bilimni passiv qabul qiluvchi ob’ektdan o‘z ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan bo‘lib, ingliz tilini o‘rgatish jarayonida kouching yondashuvidan

foydalanish o‘quvchilarning nafaqat til ko‘nikmalarini samarali egallashiga, balki o‘z-o‘zini boshqarish, tanqidiy fikrlash va maqsadga intilish kabi muhim hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishiga zamin yaratishi haqida fikr yuritiladi.

Kalit so‘zlar: kouching, texnologiya, real ta’lim, innovatsion, zamonaviy, tizim, intensivlashuv, metod, intellectual.

Annotation: In this article, the specifics of the effective organization of English lessons on the basis of coaching approaches, as well as the modern educational paradigm, are aimed at making the student simply a passive recipient of knowledge from an object to an active participant in his educational process, and the use of the coaching approach in the process of teaching English allows students not only to, it is thought that it provides the basis for the formation of important life competencies, such as critical thinking and striving for a goal.

Keywords: coaching, technology, real education, innovative, modern, system, intensification, method, intellectual.

Respublikamizda olib borilayotgan ta’lim jarayoniga oid siyosatlarga qo‘yilgan yuksak talablar o‘qituvchi faoliyatini yanada chuqurroq o‘rganish bilan birga, uning o‘ziga xos ijtimoiy-pedagogik jihatlarini tadqiq qilish bugungi zamonning talabi darajasiga aylanib bormoqda. Buning natijasi o‘laroq, o‘qitish tizimidagi innovatsiyalar, yangi texnologiyalar, metod va amiliy ishlar natijalari talabalarning motivatsion ta’limlarini rivojlantirish dolzarb masala ekanini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son «O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish choratadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-son «Ta’lim muassasalarida chet tillarini o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2019-yil 19-iyuldagi 606-son «Oliy malakali ilmiy va ilmiy pedagog kadrlarni maqsadli tayyorlash tizimini takomillashtirish to‘g‘risida» qarorlari bugungi kun xorjiy tillar yo‘nalishini bitirayotgan kadrlarga nisbatda yuqori talablarni qo‘ymoqda.

Kouching texnologiyalarining ta’lim amaliyotiga joriy etilishi zamonaviy pedagoglar uchun sifat jihatidan yangi chaqiriq hisoblanadi. Bu innovatsion texnologiya hali yetarlicha o‘rganilmagan va real ta’lim sharoitlariga to‘liq moslashtirilmagan bo‘lsa-da, hozirgi davrda uning ahamiyati juda dolzarb ekanligi ta’kidlanishi lozim. Shu bilan birga, ta’lim jarayoniga kouchingni joriy etish muammosi ikki tomonlama xarakterga ega: bir tomondan, u o‘qituvchilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishini talab qiladi, ikkinchi tomondan esa, ta’lim oluvchilarning o‘quv jarayonidagi yangi metodlarni to‘g‘ri qabul qilishini ta’minlashi zarur. Ta’lim jarayonining intensivlashuvi doirasida har bir ishtirokchining intellektual salohiyatidan samarali foydalanish orqali ijobiy natijalarga erishish mumkin. Bu borada ingliz tili darslarida juda ko‘p ishlar amalga oshirilmoqda.

Ayniqsa, ingliz tili darslarini kouching yondoshuvlar asosida tashkil qilishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bunda an’anaviy o‘qitish metodlaridan farqli ravishda, o‘quvchini dars jarayonining markaziga qo‘ygan holda, uning shaxsiy ehtiyojlari, qobiliyatlari va maqsadlariga muvofiq ta’lim berishga yo‘naltirilgan yondashuvdir.

Bu yondashuv motivatsiyani oshirish, mustaqillikni rivojlantirish va ingliz tilini faol va samarali o‘rganish uchun qulay muhit yaratadi. Koyching yondoshuvlar asosida chet tili darslarini loyihalashtirishda qyidagilarga alohida etibor qaratish lozim:

Shaxsiy maqsadlarga asoslangan o‘rganish

Kouching texnologiyasida har bir o‘quvchining individual maqsadlari (masalan, IELTS ball olish, chet elda o‘qish, kasbiy maqsadlar) aniqlanadi va darslar shu maqsadlarga mos ravishda yo‘naltiriladi.

O‘quvchining faol ishtirokini ta’minlash: Darslar markazida o‘qituvchi emas, o‘quvchi turadi. Kouchingda o‘qituvchi yo‘l-yo‘riq ko‘rsatuvchi, motivatsiya beruvchi va sherik sifatida harakat qiladi. O‘quvchi mustaqil ravishda maqsad qo‘yadi, qaror qabul qiladi va o‘z rivojlanishini baholaydi.

Refleksiya va o‘zini baholash: Har bir darsdan so‘ng o‘quvchi o‘zini baholash, nimani o‘rganganini va qaerda qiyinlashayotganini tahlil qilish imkoniga ega bo‘ladi. Bu jarayon o‘quvchining o‘z ustidan ishlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Motivatsiyani oshirish usullari: Kouching jarayonida o‘quvchining ichki motivatsiyasiga e’tibor qaratiladi. Uning qo‘rquvlari, shubhalari va ishonchsizligi bilan ishlash, pozitiv fikrlashni shakllantirish – muhim vazifalardan biri.

Faol ta’lim metodlari bilan uyg‘unlashtirish: Kouching texnologiyasi debate, role-play, case-study, problem-solving, project-based learning kabi zamonaviy metodlar bilan birga qo‘llaniladi. Bu darslarni jonli va ta’sirli qiladi.

Kouching yondoshuvlar asosida chet tili darslarini loyihalashtirish natijasida: o‘quvchining til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishi ortadi, maqsadli va natijaga yo‘naltirilgan ta’lim ta’minlanadi, o‘quvchilarda kritik fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalari shakllanadi, darslarda ijobiy psixologik muhit yaratiladi.

Tadqiqotlarimiz jarayonida ingliz tili darslarini kouching texnologiyalari asosida samarali tashkil etish uchun quyidagi usullar va yondashuvlardan foydalandik. Ular ta’lim jarayonini individuallashtirish, o‘quvchining motivatsiyasini oshirish va o‘z ustidan ishlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qilad.

Ingliz tili darslarida kouching yondashuvining o‘ziga xosligini anglash uchun uni an'anaviy o‘qitishdan farqlovchi jihatlarini ko‘rib chiqish lozim. An'anaviy darsda o‘qituvchi asosiy bilim manbai bo‘lsa, kouchingda o‘qituvchi (kouch) o‘quvchining (kouchi) o‘z yechimlarini topishiga yordam beruvchi yo‘naltiruvchi (fasilitator) vazifasini bajaradi.

Kouching texnologiyalarini ingliz tili darslariga integratsiya qilish o‘quv jarayonini tubdan o‘zgartiradi va bir qator o‘ziga xos xususiyatlar bilan ajralib turadi:

1. O‘quvchiga yo‘naltirilgan va shaxsiylashtirilgan yondashuv. Kouching yondashuvi har bir o‘quvchining individual ehtiyojlari, qiziqishlari va o‘rganish uslublarini birinchi o‘ringa qo‘yadi. Darslar qat’iy belgilangan darslik doirasidan chiqib, o‘quvchining real hayotiy maqsadlariga (masalan, chet elda o‘qish, xalqaro anjumanda ma’ruza qilish, sevimli filmini original tilda tushunish) moslashtiriladi. Bu esa o‘quvchining ichki motivatsiyasini sezilarli darajada oshiradi.

2.Maqsadlarni aniq belgilash va unga erishish strategiyasini ishlab chiqish. Dars jarayoni o‘quvchi bilan hamkorlikda aniq, o‘lchanadigan, erishib bo‘ladigan, dolzarb va vaqt bilan cheklangan (SMART) maqsadlar qo‘yishdan boshlanadi. O‘qituvchi-kouch o‘quvchiga "Nima uchun ingliz tilini o‘rganmoqchisan?", "Qanday natijaga erishmoqchisan?", "Bunga qanday yo‘l bilan erishish mumkin?" kabi ochiq savollar berish orqali uning o‘z maqsadini anglashiga va unga olib boruvchi shaxsiy rejasini tuzishiga yordam beradi.

3. Kuchli savollar texnikasidan foydalanish. Kouchingning asosiy instrumenti – bu kuchli, ochiq va fikrlashga undovchi savollardir. O‘qituvchi tayyor javoblarni berish o‘rniga, "Bu vaziyatda yana qanday yo‘l tutish mumkin?", "Bu xatodan qanday saboq olding?", "Qaysi usul senga ko‘proq samara beryapti?" kabi savollar orqali o‘quvchini mustaqil izlanishga, tahlil qilishga va o‘z yechimlarini topishga yo‘naltiradi. Bu o‘quvchida tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

4. O‘z-o‘zini anglash va o‘rganish uchun mas’uliyatni oshirish. Kouching yondashuvi o‘quvchini o‘z o‘rganish jarayonining egasi bo‘lishga undaydi. O‘quvchilar o‘z yutuqlari va qiyinchiliklarini o‘zlari tahlil qilishni, samarali o‘rganish strategiyalarini tanlashni va o‘z

rivojlanishlari uchun mas’uliyatni his qilishni o‘rganadilar. Bu ularning o‘quv mustaqilligini (learner autonomy) shakllantiradi.

5.Qo‘llab-quvvatlovchi va ishonchga asoslangan muhit yaratish. Samarali kouching uchun o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida ishonchli hamkorlik munosabatlari o‘rnatilishi shart. O‘quvchi xato qilishdan qo‘rqmaydigan, o‘z fikrini erkin ayta oladigan va har doim qo‘llab-quvvatlashni his qiladigan xavfsiz muhitda o‘z salohiyatini to‘liq namoyon eta oladi. O‘qituvchi-kouchning vazifasi nafaqat til o‘rgatish, balki o‘quvchining o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashdir.

6.Interaktiv va amaliyotga yo‘naltirilgan metodlardan foydalanish. Kouching asosidagi darslar an'anaviy ma'ruzalardan ko‘ra ko‘proq interaktiv mashg‘ulotlarga tayanadi. Rolli o‘yinlar, real hayotiy vaziyatlar simulyatsiyasi, loyiha ishlari, munozaralar kabi metodlar o‘quvchilarning o‘rgangan bilimlarini darhol amaliyotda qo‘llashlariga va muloqot ko‘nikmalarini faol rivojlantirishlariga imkon beradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, kouching texnologiyalari asosida ingliz tili darslarini tashkil qilish:individual shaxsga yo‘naltirilgan va maqsadga yo‘naltirilgan yondashuvni ta’minlaydi, motivatsiya va rivojlanishni qo‘llab-quvvatlaydi, talabani faol, mustaqil va ishonchli shaxsga aylantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Шибаршина О.Ю. Социальный институт высшего профессионального образования и его значениев процессе социализации личности // Актуальные проблемы среднего и высшего профессионального образования. – Рязань: Рязанский государственный медицинский университет имени академика И.П. Павлова, 2016. – С. 160–164.
2. Zelenin, V., Andrushchenko, T., Mymryk, M., Oleksiienko, O., & Vashchenko, K. (2023). Introduction of Coaching Technologies Into Educational Practice. Journal of Higher Education Theory and Practice, 23(2), 154–160.
3. Ibrohimovna, M. S. (2019). TECHNIQUES OF IMPROVING SPEAKING IN ESP CLASSES FOR MILITARY. CONDUCT OF MODERN SCIENCE-2019, 139.
4. Habibullayevna, V. N., & Mirshadmonovna, H. Z. (2019). Intellectual growth and development of the younger generation is a demand of the time. European science, (4 (46)), 54-57.
5. Islamova, F. (2024). AMALIY SAN’AT ORQALI O ‘SPIRIN YOSHDAGI O ‘G ‘IL BOLALALARNI MUSTAQIL HAYOTGA TAYYORLASH–KELAJAK TARAQQIYOTI SIFATIDA. Nordic_Press, 3(0003).